https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Nuriddinov Saidislom Saxobiddin o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti 2-kurs talabasi,
Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti jamoasi a'zosi
ssnuriddinovuz@gmail.com

Yuridik fanlar 12.00.00

XALQARO TASHKILOTLARNING G'AYRIQONUNIY HARAKATLARI UCHUN XALQARO HUQUQIY JAVOBGARLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOT

Annotasiya

Bugungi kunda xalqaro huquq ko‘plab yoshlar tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilayotgan muhim huquq tarmog‘i hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur soha murakkab tushunchalar, nazariy qarashlar va amaliy masalalarga boy bo‘lgani sababli ayrim tushunarsizliklar ham uchrab turadi. Albatta, ilmiy izlanishlar jarayonida xatolar yuzaga kelishi tabiiy holatdir. Ushbu maqolada yosh tadqiqotchining nazarida xalqaro huquqning subyektlari tushunchasi hamda ularning xalqaro huquq normalarini buzganliklari uchun xalqaro huquqiy javobgarligi masalasi markaziy o‘rin egallaydi. Muallif davlatlar, xalqaro tashkilotlar, shuningdek, ayrim hollarda jismoniy shaxslarning xalqaro huquq subyekti sifatidagi o‘rni va ahamiyatini tahlil qiladi. Har bir subyektning huquq va majburiyatlari, javobgarlik shakllari hamda ularni qo‘llash mexanizmlari sodda va tushunarli uslubda yoritib beriladi. Maqola davomida nazariy fikrlar hayotiy misollar bilan boyitilib, o‘quvchining mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsad qilingan. Natijada, mazkur ish o‘quvchiga xalqaro huquqning mohiyatini yaxshiroq anglashga xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali muallif mavzuni chuqurroq ochishga, mavjud muammolarni aniqlashga, ularni hal etish yo‘llarini izohlashga va ilmiy hamda amaliy xulosalar chiqarishga uringan.

Kalit so’zlar

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Xalqaro huquq, subyekt, xalqaro tashkilotlar huquqi, huquqiy layoqati, muomala layoqati, Xalqaro dengiz huquqi, xalqaro gumanitar huquq,

Abstract

Today, international law is an important branch of law studied with great interest by many young people. At the same time, some misunderstandings also occur due to the fact that this area is rich in complex concepts, theoretical views and practical issues. Of course, it is natural that errors occur in the course of scientific research. In this article, the concept of subjects of international law and their international legal responsibility for violating international law norms occupy a central place in the eyes of the young researcher. The author analyzes the role and importance of States, international organizations, as well as individuals as subjects of international law in some cases. The rights and obligations of each subject, forms of responsibility and mechanisms of their application are highlighted in a simple and understandable style. Throughout the article, theoretical ideas are enriched with real-life examples, aiming to increase the reader's interest in the topic. As a result, this work serves to help the reader better understand the essence of international law. Through this approach, the author attempted to delve deeper into the topic, identify existing problems, explain ways to solve them, and draw scientific and practical conclusions.

Key words

international law, subject, law of international organizations, legal capacity, legal capacity, international maritime law, international humanitarian law,

Абстракт

Сегодня международное право является важной отраслью права, которую с большим интересом изучают многие молодые люди. Вместе с тем, в связи с тем, что данная сфера богата сложными понятиями, теоретическими взглядами и практическими вопросами, встречаются и некоторые недоразумения. Конечно, ошибки в процессе научных исследований — это нормальное явление. В данной статье центральное

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

место занимает понятие субъектов международного права и их международно-правовая ответственность за нарушение норм международного права в глазах молодого исследователя. Автор анализирует роль и значение государств, международных организаций, а также в некоторых случаях физических лиц как субъектов международного права. Права и обязанности каждого субъекта, формы ответственности и механизмы их применения изложены простым и понятным языком. На протяжении всей статьи теоретические идеи обогащаются жизненными примерами, что направлено на повышение интереса читателя к теме. В результате данная работа помогает читателю лучше понять суть международного права. Используя этот подход, автор попытался глубже раскрыть тему, выявить существующие проблемы, объяснить пути их решения и сделать научные и практические выводы.

Ключевые слова

международное право, предмет, право международных организаций, правоспособность, правоспособность, международное морское право, международное гуманитарное право,

Kirish:

Bugungi kunda huquqshunoslik fani va yo‘nalishiga qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Huquqning bir tarmog‘i sifatida “Xalqaro huquq”ga qiziqish boshqa huquq tarmoqlariga nisbatan ortmoqda-ki, bu avvalo zamon va makon bilan bog‘liq. O‘zimiz ham yuridik sohada tahsil olib kelmoqdamiz, “Xalqaro huquq”ga ishtiyoqimiz baland. Xalqaro huquqning bir bo’g’ini hisoblangan xalqaro tashkilotlar huquqi ham o’ta dolzarb. Xalqaro tashkilotlar huquqi - bu davlatlar va boshqa subyektlar tomonidan yaratilgan xalqaro tashkilotlarning tashkil etilishi, tuzilishi, vakolatlari, faoliyati va xalqaro huquqiy me’yorlarni buzganligi uchun javobgarligini tartibga soluvchi huquq normalari yig’indisidir. Uning muhimligi shundan iboratki, globallashuv davrida ko’plab masalalar hududiy emas, balki, global xarakterga ega. Xalqaro tashkilotlar yordamida

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

davlatlar shunday muammolarni birgalikda hal qilishlari mumkin. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar davlatlarga davlatlarning hududi yoki iqtisodiy ahvoliga qaramasdan, barcha davlatlarga xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida qarab, ular o'rtasida vujudga kelgan nizolarni kollegial asosda hal qilish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar iqtisodiy jihatdan ortda qolayotgan davlatlarga moliyaviy yordam va tavsiyalar ham berishi mumkin. Xalqaro tashkilotlarning javobgarligi esa, bevosita ularning faoliyati qonuniy asosda olib borilishini ta'minlovchi mexanizm hisoblanadi. Agar ularning javoblarligi tegishli tartibda aniq yoritilmagan bo'lsa, ularning qonuniy faoliyati izdan chiqib ketishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan xalqaro tashkilotlarning javobgarligi masalasi muhim ahamiyatga ega. Ammo ushbu fanga tegishli doktrinalarni o‘rganganimizda xalqaro huquq subyektlariga bog‘liq bo‘lgan mavzularning ilmiy tomoni ozmuncha qiyinchiliklar tug‘dirib keladi. Bugun biz ana shu masalalarga ilmiy nuqtai nazardan yozdashgan holda, o'z fikrlarimizni uyg'unlashtirib shu masalalarni batafsil tahlil qilib ko‘ramiz.

Metodlar:

Mavzu turli olimlarning xalqaro huquq haqidagi ilmiy izlanishlari, fikrlarini o'rganish orqali yoritilgan

Natijalar:

Bilamiz-ki, xalqaro huquq subyekti - bu xalqaro huquqdan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlarga ega bo'luvchi, uni himoya qiluvchi hamda xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinadigan xalqaro-huquqiy munosabatlarga kirishuvchilar hisoblanadi. Xalqaro huquq subyektlari shunday namoyon bo'ladiki, unda subyektlar xalqaro huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinadigan xalqaro munosabatlarga kirishadilar. Huquqiy munosabat faqatgina subyektlar o‘rtasida vujudga kelishi mumkin. Xalqaro huquq subyekti ikkita asosiy tarkibiy elementni o‘z ichiga oladi:

Birinchidan, huquqqa egalik layoqati va majburiyatni bajarish (huquqiy layoqat),

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ikkinchidan, mustaqil tarzda huquqni amalga oshirish va majburiyatni ado etish (muomala layoqati).

Xalqaro huquq subyektlari ikkita asosiy toifaga bo'linadilar, bular - asosiy (birlamchi) va hosila (ikkilamchi). Birlamchi subyektlarga Davlat, mustaqilligi uchun kurashayotgan millat va xalqlar kiradi. Ikkilamchi subyektlarga xalqaro davlatlararo tashkilotlar, davlatga monand tuzilmalar (Vatikan) kiradi.

Demak, yuqorida ko'rib turganimizdek, xalqaro tashkilotlar xalqaro huquqning ikkilamchi, ya'ni hosilaviy subyektlari qatoriga kiradi. Bu nima degani? degan savol tug'ilishi tabiiy. Xalqaro huquqning hosilaviy subyekti shuni anglatadi-ki, ular xalqaro huquqning birlamchi subyektlari, ya'ni yuqorida sanab o'tgan subyektlar tomonidan yaratiladi. Masalan, davlatlarning kelishuvi asosida yaratilgan, bugungi kunga qadar ko'plab masalalarga xalqaro darajada yechim topayotgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro davlatlararo tashkilotlar. Fikrimcha, xalqaro huquqning hosilaviy subyektlari mavjud bo'lmasa ham xalqaro huquq mavjud bo'lishi mumkin. Lekin xalqaro huquqning birlamchi subyektlari bo'lmasa, xalqaro huquqning o'zi mavjud bo'lmasligini taqazo etadi. Chunki, aytib o'tilgan tashkilotlar yaratilguniga qadar xalqaro huquq mavjud bo'lgan. Davlatlar hali mavjud bo'lmagan vaqtlarda esa xalqaro huquq rasman mavjud bo'lmagan.

Shunday ekan, xalqaro tashkilotlar va ularning javobgarligi masalasiga to'xtalib o'tishimizdan avval ularni yaratilishiga asos bo'lgan davlatlar haqida biroz ma'lumot berib o'tishimiz darkor. Davlatlar xalqaro huquq subyekti sifatida. Muayyan tuzilma faqatgina davlat sifatida yuridik talablarga mos kelgandagina tan olinadi. 1993-yilda qabul qilingan "Davlatlarning huquqlari va majburiyatlari to'g'risida"gi Amerika mamlakatlari konvensiyasiga ko'ra davlatlar xalqaro huquqning subyekti sifatida tan olinishi uchun quyidagi me'zonlarga javob berishi kerak: 1. Doimiy aholisiga ega bo'lishi 2. Muayyan hududga ega bo'lishi 3. Rasmiy hukumatning mavjudligi 4. Boshqa davlatlar bilan munosabatlaarga kirisha olish qobiliyati. Davlatlarning yana bir muhim belgisi - bu suverentitetdir.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Chunki aynan suverentitet, davlatni boshqa davlatlarga tobe emasligini, xalqaro huquqning boshqa subyektlaridan mustaqilligini anglatadi. Davlat xalqaro huquqning boshqa subyektlariga tobe bo'lishi ham o'z navbatida huquq va majburiyatlarini mustaqil bajara olmaslik, ya'ni muomala layoqati bilan bog'liq. Shuni ham aytib o'tishimiz joiz-ki, davlatlar xalqaro munosabatlarga o'z organlari va ularning mansabdor shaxslari orqali kirishar ekan, ularning faoliyatiga davlat to'liq javobgar. Odatda davlatlararo munosabatlarga davlat rahbari, hukumat rahbari va davlatning tashqi munosabatlariga javobgar bo'lgan Tashqi ishlar vaziri davlatdan vakil sifatida kirishadi. Masalan, O'zbekiston misolida oladigan bo'lsak, 1995-yilda qabul qilingan "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi Qonunimizga muvofiq, xalqaro shartnomalar tuzishga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bosh vazir, Tashqi ishlar vaziri haqli. Ya'ni ular xalqaro shartnomani imzolash orqali xalqaro munosabatlarga kirishgan hisoblanadi va shartnomaning huquqiy oqibatlariga davlat javobgar bo'ladi.

Xalqaro tashkilotlar - muayyan maqsadlarga erishish uchun xalqaro shartnoma asosida tashkil etilgan, doimiy faoliyat olib boruvchi organlarga ega, a'zolari xalqaro huquq subyektlari bo'lgan xalqaro huquqga muvofiq tuzilgan birlashmadir. Xalqaro tashkilotlarni "Tashkilot" so'zidan tashqari, ittifoq, birlashma, bank va boshqa nomlar bilan ham uchratishimiz mumkin.

Xalqaro tashkilotlarni xalqaro-huquqiy javobgarlik masalasi ularning faoliyatida qonuniylik prinspini ta'minlash, ularda xalqaro-huquqiy normalarga nisbatan hurmat hissini shakllantirishda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu maqsadda 2011-yilda xalqaro tashkilotlarning javobgarligini tartibga soluvchi "Xalqaro tashkilotlarning javobgarligi to'g'risida"gi(keyingi o'rinlarda ARIO deb yuritiladi) xalqaro hujjat qabul qilingan. Ayni xalqaro hujjatning 3-moddasiga binoan, xalqaro tashkilotlar quyidagi hollarda xalqaro-huquqiy javobgarlikga tortiladi: 1. Xalqaro huquqga ko'ra noqonuniy harakat yoki harakatsizlik xalqaro tashkilotga mansub bo'lsa. 2. Xalqaro tashkilot xalqaro majburiyatni buzgan bo'lsa. Xalqaro tashkilotga mansublik deganda quyidagilarni tushunishimiz lozim,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ya’ni quyidagilar xalqaro tashkilotga mansub hisoblanadi: A) Xalqaro tashkilot yoki uning muassasalarining harakat yoki harakatsizligi. Qoidaga binoan, xuddi davlatlar xalqaro munosabatlarda o’z organlarining faoliyatiga javobgar bo’lganligi kabi xalqaro tashkilotlar ham o’z muassasalarining faoliyatiga javobgardirlar. B) Davlat organi yoki boshqa tashkilot organining boshqa xalqaro tashkilot tasarrufiga berilgan holatdagi harakati, basharti, qabul qiluvchi tashkilot uni ustidan nazoratni amalga oshirsa, xalqaro tashkilotning o’zini harakati deb topiladi. Bu qoida xalqaro tashkilotlarga o’ziga ishonib topshirilgan organdan xalqaro normalarni buzish maqsadida foydalanmaslik, undan o’z vazifalari yo’lida qonuniy foydalanish majburiyatini yuklaydi. D) Xalqaro tashkilot organi yoki agenti vakolatlaridan chetga chiqsa yoki ko’rsatmaga qarshi harakat qilsa, ushbu harakat ham tashkilotga taaluqli deb topiladi. E) Xalqaro tashkilotlarning o’zlari tan olgan harakatlari. Shuni ham alohida ta’kidlab o’tishimiz lozim-ki, agar xalqaro tashkilotlar davlatlarga xalqaro huquq normalarini buzishiga yordam bersa yoki boshqacha tarzda qo’llab-quvvatlasa ham javobgarlikga tortiladi. Xalqaro majburiyatni buzilishi - bu xalqaro tashkilotni harakati o’z zimmasidagi majburiyatga mos kelmasligidir. Ushbu qoidaga a’zo davlatlarga nisbatan tashkilot qoidalaridan kelib chiqadigan majburiyatlari ham kiradi. Masalan, Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo’lgan muayyan davlat JST tomonidan unga yuklangan majburiyatiga zid ravishda import bojini keskin oshirsa, ayrim davlatlar mahsulotlariga diskriminatsion cheklov qo’ysa(Sanksiya tariqasida qo’yilgan cheklovlar bundan mustasno), xalqaro tashkilotning majburiyatini buzishi deb qaraladi. Xalqaro tashkilotlar xalqaro huquqni buzgan taqdirda ularga nisbatan quyidagi huquqiy ta’sir choralari qo’llanilishi mumkin: 1. Huquqbuzarlikni to’xtatish va kelajakda bunday qilmaslik kafolatini berish majburiyatini yuklash. Bunday jazo turiga misol qilib 1997-yildagi “EC - Bananas III” ishini keltirishimiz mumkin. Unda AQSH, Ekvator va boshqa davlatlar Yevropa Ittifoqining bananlar importi bo’yicha tartibini JST qoidalariga zid, ya’ni bu diskriminatsiya, savdo cheklovlari deb shikoyat qilgan. Shundan so’ng, JST Appelyatsiya organi o’z

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qarorida Yevropa Ittfioqiga bananga doir tartibni zudlik bilan JST qoidalariga moslashtirish va kelajakda bunday qilmaslik kafolatini berish majburiyatini yuklaydi. 2. Yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini yuklash, Arioning 34moddasida zararni qoplashning 3 shakli ko'rsatib o'tilgan. Bular: A) Restitutsiya(Asl holatni tiklash). Restitutsiya amalda imkonsiz bo'lmasa va u kompensatsiyaga nisbatan nisbatan juda ko'p bo'lmasa majburiy hisoblanadi. Misol: 2005-yilda Braziliya Yevropa Ittifoqining tovuq mahsulotlariga nisbatan qo'llagan boj stavkalari JST ta'rif majburiyatlariga zid deb JSTga shikoyat qilgan. JST appelyatsiya organi qaroriga ko'ra Yevropa Ittifoqiga asl holatni tiklash majburiyatini yuklagan. B) Kompensatsiya(moddiy yoki ma'naviy zararni qoplash). Restitutsiya bilan qoplanmagan barcha zararlar uchun kompensatsiya to'lanadi. Kompensatsiya barcha zararlar barobarida keltirishi mumkin bo'lgan foydani ham o'z ichiga oladi. Misol: 1995-yilda Srebrenista qirg'ini vaqtida BMT tinchlikparvarlari(Dutchbad) o'z vazifalarini bajarmaganlikda va tinch aholini himoya qila olmaganlikda ayblanadi va jabrlanuvchilar BMTga nisbatan javobgarlik talab qiladi. Ammo BMTning immunitet huquqi mavjudligi sababli BMTga bevosita da'vo qo'yish imkonining yo'qligi uchun sud BMTning javobgarlik masalasini alohida ko'rib chiqdi va unga kompensatsiya to'lash majburiyatini yukladi. D) Satisfaksiya. Satisfaksiya uzr so'rash, afsus bildirish va rasmiy tan olish orqali amalga oshiriladi va bu tashkilot uchun haqoratli shaklda bo'masligi lozim. Misol: Xalqaro Mehnat Tashkiloti bir davlat qonunchiligida "Majburiy mehnat mavjud" deb yozilgan hisobot chiqaradi. Keyinroq, bu ma'lumot noto'g'ri kiritilganligi ayon bo'ladi va XMT o'sha davlatga nisbatan rasmiy uzr maktubini yuborib, bu ma'lumot noto'g'ri talqin qilinganligini tan oladi va OAV uchun ochiq bayonot beradi. Ya'ni o'sha davlatning sha'ni va obro'si tiklanadi. 3. A'zolari tomonidan agar tashkilot o'z majburiyatlarini buzayotganini ko'rsa moliyaviy badallarni to'lashni vaqtincha to'xtatish 4. A'zo davlatlarning xalqaro tashkilotdan chiqib ketishi 5. Xalqaro shartnomalar bo'yicha javobgarlikdan kelib chiqadigan choralar. Shuningdek, xuddi jinoyat sodir etganda

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qilmishning jinoiy ekanligini istisno qiladigan holatlar mavjud bo'lgani kabi xalqaro tashkilotlarning harakatlarini huquqbuzarlik deb topishga istisno qiladigan holatlar bor. Jumladan, o'z o'zini himoya qilish uchun qilingan harakatlar, fors-major holatlarida qilingan harakatlar. Fors-major holatiga "ARIO"da quyidagicha ta'rif berilgan. Forsmajor - oldindan ko'rib bo'lmaydigan, qarshilik ko'rsatib bo'lmaydigan, obyektiv kuch ta'siridagi holat bo'lib, bunda majburiyatlarni bajarish imkonsiz bo'lishi. Tanglik, ya'ni mas'ul shaxs o'z hayoti yoki ishonib topshirilgan shaxslarning hayotini saqlab qolish uchun boshqa yo'l yo'q bo'lsa. Lekin tanglik tashkilotni o'zidan kelib chiqsa, amalga oshirilgan harakat bundanda yomonroq holatlarga olib kelish ehtimoli mavjud bo'lsa, bu holat tanglik deb topilmaydi.

Oxirgi zarurat sifatida sodir etilgan harakatlar. Harakat huquqbuzarlikni istisno etadigan holat deb topilganda holat tugashi bilan majburiyatni bajarish tiklanadi va kompensatsiya masalasi saqlanib qoladi. Ammo "ARIO"ga ko'ra imperativ xalqaro huquq normalarga zid harakatlarni istisno etuvchi holatlar oqlamaydi.

Muhokama va xulosa:

Shuni ham qo'shimcha taklif sifatida aytib o'tmoqchiman, ayrim manbalarda tadbirkorlik subyektlari va alohida shaxslar ham xalqaro huquq subyektlariga kiritiladi. Ayrim huquqshunoslar shaxsning xalqaro subyektligi tamoyiliga qo'shilmaydi. V.S. Chernichenko xalqaro huquqning subyektiv chegaralari ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat ekanligini ko'rsatadi. Birinchidan, xalqaro huquq normalari faqat davlatlararo munosabatlarni tartibga solishi mumkinligi, ikkinchidan, xalqaro huquq subyektlari faqat davlatlararo munosabatlar ishtirokchilari bo'lishi mumkinligi uchun.

V.S.Chernichenko o'z mulohazalarini davom ettirar ekan, shaxs hech bir sharoitda davlat kabi tashkilotga, hukumatlararo tashkilotlar kabi davlatlar hamkorligi shakllariga tenglashtirilishi mumkin emas degan xulosaga keladi. Shuning uchun u obyektiv jihatdan davlatlararo munosabatlar ishtirokchisi bo'la

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

olmaydi va xalqaro huquq normalarining bevosita ta’sir ko’rsatishiga bo’ysuna olmaydi. Shaxs xalqaro huquq subyektining birorta unsuriga ega emas va ega bo’la olmaydi. Xalqaro huquq subyektining qaysidir unsuriga ega bo’lmasdan ayni paytda xalqaro huquq subyekti bo’lish mumkin emas.

Ushbu masala buyicha qarama-qarshi fikrlar 1967 va 1989 yillarda nashr etilgan ko’p jildli xalqaro huquq kurslarida paydo bo’ldi. Masalan, N.A. Ushakov “Shaxslar xalqaro huquqning subyektlari emas, shaxsning xalqaro huquq subyekti ekanligi konsepsiyasi asossizdir” deb tasdiqlagan. U o’z nuqtai nazarini asoslar ekan, shaxslar xalqaro huquqning subyektlari emasligi va bo’lishi mumkin emasligini uqtiradi.

Strasburg universitetining professori E.Soller jismoniy shaxslarning xalqaro huquq subyekti ekanligini inkoretar ekan, xalqaro huquq subyektlari uchun ikki belgi xosligini tasdiqlaydi:

birinchidan, ular bevosita xalqaro huquq tomonidan o’rnatilgan huquqlar va majburiyatlarga ega bo’lishlari kerak;

ikkinchidan, ushbu huquq va majburiyatlarni sud tartibida bevosita majburlab amalga oshiradigan xalqaro mexanizm bo’lishi kerak.

O‘zi xalqaro huquq ham bir necha tarmoqlarga bo‘linadi. Mana masalan; xalqaro gumanitar huquq, xalqaro dengiz huquqi va boshqalar. Bunda o‘zlarining alohida subyektlari bor. Aytaylik men oddiy talaba bo‘lib xalqaro ommaviy huquq fanida “Xalqaro ommaviy huquq”, “Xalqaro dengiz huquqi” mavzusi o‘tilib qolgudek bo‘lsa bormi, ularning fan subyektlari chalkashib ketadi. Xalqaro huquq subyektlari aslida qiziq ammo subyektlar guruhi tushunarsizliklarni olib kelyapti. Buni biz tizimlashtirishimiz lozim, chunki bu oddiy o‘quvchi, talabada fanga qiziqishni so‘ndirmoqda. Xulosa qilib aytganda, xalqaro huquq subyektlarini aniqlashtirilgan yoki soddalashtirilgan varianti taqdim etilishi kerak. Bu esa tadqiqotchilarni, huquqshunoslarni, xalqaro huquq nazariyotchilarini e’tibor markaziga tushadi degan umiddamiz.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro ommaviy huquq/darslik/2023
2. Xalqaro tashkilotlar huquqi/o'quv qo'llanma/2024
3. Xalqaro tashkilotlar huquqi/o'quv qo'llanma/2019
4. "Xalqaro tashkilotlarning javobgarligi to'g'risida"gi xalqaro hujjat:

https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/draft_articles/9_11_2011.pdf

5. "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi Qonun.